

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiy-teoriyalıq konferenciya

GEOGRAFIYA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna

P.f.n., dotsent

Urganch davlat universiteti

e-mail: matsaidovasayyora@gmail.com

Ortikova Iqbol Olimboyevna

Urganch davlat universiteti, doktorant

e-mail: iqbola@pmkhiva.com

Yoshlarga ta'lif va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchiga, uning g'oyaviy e'tiqodiga, kasb mahoratiga, iste'dodiga va madaniyatiga hal qiluvchi darajada bog'liqdir.

O'qituvchi - o'quvchi madaniy dunyosi me'moridir, jamiyatning ishonchli kishisidir, jamiyat o'qituvchilariga eng aziz, eng qimmatli - bo'lmish, bolalarini o'z umidini va kelajagini ishonib topshiradi, bu g'oyat oliyanob va qiyin kasb, o'z umidini shu kasbga bag'ishlangan kishidan doimo ijodkorlikni tinimsiz fikrlashni, qalb sahovatini, bolalarga mehr - muhabbatini va ishga astoydil sadoqatini talab qiladi.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchining darslari xilma - xil bo'ladi. O'qituvchi bir darsda yangi materialni tushuntirishdan oldin 5 - 6 minut davomida o'quvchilarni doskaga chiqarmay so'rab chiqadi, mavzuni gapirib beradi: geografik obyektlarni xaritadan ko'rsatadi, doskaga chizmalar chizadi, o'qituvchining doskaga yozgan, chizganlarini o'quvchilar daftarlariiga yozib oladilar. O'quvchilarga berilgan savollarga atlas va darslikdan foydalanib javob topish buyuriladi. Boshqa darsda esa o'qituvchi diafilm ko'rsatadi, o'qituvchi diafilmning har bir kadriga unda berilganiga nisbatan kengroq va to'laroq izoh beradi. O'qituvchi esa o'quvchiga kerak bo'lgan, darslikda berilmagan narsalar haqida gapirib beradi [1].

Ko'pgina o'qituvchilar har bir darsni faqat mazmunli qilib emas, uni qiziqarli qilib o'tishga intiladilar. Fanimizning o'ziga xos xususiyati ham shundadir. Maktab va o'rta maxsus o'quv yurtlarini ancha oldin bitirib ketgan o'quvchilardan, maktab va o'rta maxsus o'quv yurtlari geografiya kursida nimalar esingizda qolgan deb so'rab ko'rsangiz, ular sayyoohlар haqida, tabiat sirlari, turli mamlakat va xalqlar to'g'risida maroq bilan gapirib eslashadi. Siz suhbатdoshingizning xaritani, mamlakatlar, mamlakatimiz va butun dunyoning tabiatini va xo'jaligi haqida yaxshi bilishini his etasiz. Suhbat oxirida esa "Geografiya qiziqarli fan" - degan gapni eshitasiz. Shunday ekan bu fanni, ilmiy darajasiga ziyon etkazmay, qiziqarli qilib o'tish kerak.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Shu o'rinda akademik V. A. Obrutsev, A. E. Fersmanlar yozgan "Qiziqarli geologiya", "Qiziqarli mineralogiya", "Qiziqarli geoximiya", O. Mo'minovning "Turfa olam", P. Musaev va R. Qurbonniyozovlarning "Qiziqarli geografiya" kabi kitoblarida fanning juda murakkab masalalari qiziqarli qilib bayon etilgan. Agar yoshlarimiz "Kim bo'lsam ekan?" degan savolga shu kitoblardan javob topgan desak xato qilmagan bo'lamiz [2].

Darsda qo'yiladigan talablardan biri uni qiziqarli bo'lishdir desak xato qilmaymiz. O'quvchilar geografiyani yaxshi bilishlari uchun, sayr va sayohatlar, sinfdan tashqari ishlar ham qiziqarli tashkil etilishi lozim [4].

O'qituvchining vazifasi faqat ta'lim - tarbiya beribgina qolmay, u o'quvchilarga Vatanga muhabbat, samimiylik, halollik, orastalik, dovyuraklik tuyg'ularini ham tarbiyalaydi. Shu bilan birga geografiyada tarbiya hamma vaqt hamma joyda darsda, yurishda, sayrda, majlisda ham beriladi.

Har bir o'qituvchining o'z ish tarzi, o'z pedagogik uslubi, bo'ladi. Pedagogik uslub asta - sekin oliy maktab va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, mактабда, o'qish davrida pedagogik amaliyatda, hamkasblarining darslariga kirganda shakllanadi. O'qituvchini yillar davomida tarkib topgan shu uslubini o'zgartirishga majbur etish juda qiyin.

Rasm chizishni yaxshi biladigan o'qituvchilar ham bor. Ular darsda tushuntirish bilan birga har doim sinf doskasiga rangli bo'rlar bilan rasm, chizma, sxema, diagrammalarni chizib boradilar. Javob berayotgan o'quvchilar ham shunday qiladi, ya'ni aytayotgan fikrini doskada chizib ko'rsatib mustahkamlaydi. Badiiy so'z ustasi bo'lgan o'qituvchilar ham bor. Yoki darsini ta'limning texnika vositalari yangi pedagogik texnolgiyalardan foydalanib o'tayotgan o'qituvchilarning darslarida bo'lamiz. Masalan, o'quvchi, o'qituvchi hikoyasini eshitish bilan birga film ham namoyish qilib boriladi.

Bir xil ishlaydigan ikkita bir - biriga o'xshagan o'qituvchini topish qiyin. O'qituvchini hamkasbdek ishlashga majbur qilish kerak emas. Ilg'or o'qituvchilar tajribasini targ'ib qilish, yaxshi o'qituvchilar darsiga kirish, pedagogik mahorat ustalarining ishlari bilan tanishib o'z uslubini takomillashtirish lozim. O'qituvchining mehnati ijodiy mehnat. Har qanday ijodiy ishlarda bo'lgani kabi pedagog ishida ham hamma vaqt muvaffaqiyat bo'lavermaydi. Ba'zida o'qituvchilar yaxshi tayyorgarlik ko'rilgan dars bir sinfda muvaffaqiyatli o'tilib boshqasida barbos bo'lgani ham uchrab turadi. Bunda o'qituvchi nimanidir hisobga olmagan, qiyomiga etkazmagan. O'quvchilarga bilish, kashf etish, quvonchni bag'ishlash uchun darsni takomillashtirish yo'llarini zo'r berib qidirish kerak.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Biz har bir o‘qituvchining o‘z ta’lim berish uslubi borligini nazarda tutib, o‘qituvchiga dars o‘tish, darsdan tashqari ishlar olib borish yuzasidan o‘z tavsiyalarimizni beramiz. O‘qituvchilar albatta ijodiy ishini boyitishda tanlab olib foydalanadilar.



1-rasm. Kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis.

Yuqoridagi fikrlar barchasi o‘qituvchining kasbiy kompetentligi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik shuningdek quyidagi holatlarda nomoyon bo‘ladi [3].



2- rasm. Pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirish.

Pedagog kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘z ustida ishlashi va rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega. O‘z - o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlili qilish va o‘zini baholash orqali aniqlanadi.

Geografiya o‘qituvchisini o‘z ustida ishlashi

1. Geograf kasbiy faoliyatiga oid BKMLarni takomillashtirib borishi;
2. Faoliyatiga tanqidiy va ijodiy yondashishi;
3. Kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

4. Ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
5. Salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
6. Ijobiy sifatlarni o'zlashtirish;

Geografiya o'qituvchisini o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Bugungi kunda geografiya o'qituvchisi o'z kasbi nuqtai nazaridan doimo yutuq va kamchiliklarini aniqlashi; Geografni bugungi kun bilan hamnafas bo'layaptimi kamchiliklarini bartaraf etish uchun aniq qarorga kelishi; Qarorlari asosida amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo'llarini izlash; Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka harakat qilish; Qabul qilingan qarorni izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ишмуҳаммедов Р. Таълимда инновация. – Тошкент: “Фан”, 2010.
2. Қурбонниёзов Р. География ўқитиши методикаси. Урганч 2001.
3. Муслимов Н, Усманбаева М, Сайфуров Д, Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Тошкент – 2015 й.
4. Таможная Е.А., Смирнова М.С., Душина И.В. Методика обучения географии. Москва, Юрайт - 2016
5. Tursinbaeva, Gaypova Roza, Turdibekova Zamira Muzapparovna, and Koshkinbaeva Mekhriban Turganbaevna. "THE IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY." *International Journal of Pedagogics* 3.10 (2023): 53-56.
6. Gaypova R. T., Jamalatdinova N., Nasirova D. GEOGRAFIYA TALIMINDE MASHQALALIQITIWDINORNI НАМАНГИЧИЛДИКИ //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 34-36.
7. Xodjaeva G. A., Gaypova R. T., Turdibekova Z. M. Talabalarning ijodiy geografik qobiliyatini rivojlantirishda muammoli tálím texnologiyalardan foydalanish //Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – 2023. – Т. 1. – С. 59.
8. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.